

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 3



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№3 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурад Мансур Бобомурадovich
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович

доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Холбеков Абугани ЛИТЕРАТУРНЫЙ МЕТОД КАК СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТРУМЕНТ В АНАЛИЗЕ ТОТАЛИТАРИЗМА (НА ПРИМЕРЕ РОМАНА «1984»).....	8
2. Султанова Эътибор МЕХАНИЗМЫ ПОЛИТИКИ ТОЛЕРАНТНОСТИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ.....	15
3. Латипова Нодира МЕСТО И РОЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ЭТИКИ В СОЦИАЛЬНОЙ РАБОТЕ.....	21
4. G'afforova Mavlyuda JAMIYAT HAYOTIDA XOTIN-QIZLARNING SOTSIOMADANIY QIYOFASI.....	29
5. Tagiyeva Gulsum, Tursunboyev Jahongir O'ZBEKISTONDA ISTIQBOLLI YOSH RAHBAR KADRLARNI TAYYORLASH TIZIMINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	38
6. Xolbekov Abdugani, Axmedov Tuychi IJTIMOIY XAVFLAR SHAROITIDA MAHALLANING ROLI VA ANAMIYATI.....	51
7. Якубов Ильдар КОНЦЕПЦИИ УПРАВЛЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ РОЛИ ГОСУДАРСТВА: ПОЛИТИКО-СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД.....	57
8. Хасанова Мавлюда, Низамов Шохрухжон РОЛЬ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ФИЛИАЛАХ РОССИЙСКИХ ВУЗОВ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	63
9. Mannanova Nilufar BUYUK BRITANIYA DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA KOMPETENSIYA MODELLARINING RIVOJLANISH AMALIYOTI.....	71
10. Berdimuratova Alima, Baymurzaev Azamat, Berdimuratov Nauriz JAMIYATDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING ROLI.....	78
11. Radjabova Aziza XALQARO MUNOSABATLAR VA JAHON SIYOSATIDA GENDER FENOMENI: FEMINISTIK NAZARIYANING KONSEPTUAL YONDASHUVLARI.....	87
12. Ixtiyarov Farxod RAQAMLI TENGSIZLIKNI INKLYUZIV YONDASHUV ASOSIDA BARTARAF ETISH IMKONIYATLARI.....	93
13. Ergasheva Mehribon “GENDER MADANIYATI” TUSHUNCHASI: MOHIYATI VA ASOSIY JIHLTLARI.....	100
14. Mengliyev Atabek REPRODUKTIV SALOMATLIKNI BELGILOVCHI IJTIMOYIY DETEMINANTLAR: SOTSIOLOGIK TAHLIL.....	107

15. Джураева Анна, Сеитов Азамат СОЦИАЛЬНАЯ ЦЕНА УСТОЙЧИВОСТИ: УРОКИ КРИЗИСА 2008 ГОДА И РИСКИ “ГОЛЛАНДСКОЙ БОЛЕЗНИ” ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА.....	118
16. Mo‘minov Zokirjon TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARINI YUQUMLI FUNKSIYALARI: IJTIMOIIY- STRAUKTURAVIY TAHLIL.....	125
17. Husenov Sirojiddin “HAR BIR OILA TADBIRKOR” HARAКATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	132
18. Kalanova Sabohat, Saidov Ulug‘bek RAQAMLI JAMIYATDA AVLODLAR ALMASHINUVI JARAYONLARINING DIFFERENSIATSIYASI.....	140
19. Toshbo‘riyeva Sevara TA‘LIM VA OILAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASHNING YOSH AYOLLAR IJTIMOIIY MOBILLIGIGA TA‘SIRI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA).....	150
20. Mannanov Erkin ETNOTURIZMNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARIGA BIR NAZAR.....	157
21. Артыкова Алёна ОРИЕНТАЦИЯ НА ЧЕЛОВЕКА: НОВЫЙ ВЕКТОР РАЗВИТИЯ МАХАЛЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	164
22. Zaitova Sitara O‘ZBEKISTONDA KAM TA‘MINLANGAN OILALARNI MANZILLI QO‘LLAB- QUVVATLASH MEХANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	177
23. Raximjonova Gulzira DAVLAT BOSHQARUVI SHAFFOFLIGINI TA‘MINLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINING O‘RNI: STATISTIK VA METODOLOGIK TAHLIL.....	186
24. Ro‘yiddinova Aisha O‘ZBEKISTONDA ISHONCHLI AXBOROT MUHITINING HOLATI VA UNING XALQARO KO‘RSATKICHLARDAGI O‘RNI.....	196
25. Xaydarova Javohira RAHBAR AYOLLARNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MEХANIZMLARI.....	203

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Berdimuratova Alima,

falsafa fanlari doktori, professor,
«Jasliq» mintaqaviy tadqiqot markazi direktori
e-mail: b.alima@karsu.uz


Baymurzaev Azamat,

falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti
e-mail: baymurzaev2020@gmail.com

Berdimuratov Nauriz,

Qoraqalpoq davlat universiteti o'qituvchisi
e-mail: nauriz.berdimuratov@gmail.com

JAMIYATDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING ROLI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21111668>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada korrupsiyaning ijtimoiy hodisa sifatidagi hususiyatlari, maishiy korrupsiyaning kelib chiqish omillari tahlil qilinadi. Korrupsiyaning tizimli xarakterga egaligiga diqqat qaratiladi. Maishiy korrupsiya jamiyat hayotida uncha havfli emas ko'ringani bilan, ijtimoiy ongda korrupsiyaga moillikni keltirib chiqarish hususiyati bilan havfli ekanligi ko'rsatib o'tiladi. Ijtimoiy ongda shakllangan korrupsiyani oddiy holat sifatida qabul qilinishi jamiyatda shakllangan korrupsiya tiziminining yillar davomida shakllangan tizim barqarorligini ta'minlovchi mexanizm vazifasini bajarishi asoslab berilgan. Korrupsiyaning tizimli xarakterga ega bo'lishi ijtimoiy institut bo'lgan davlatga alternativa bo'lgan va davlatning o'zining asosiy funksiyalaridan ortib ketmasligini ta'minlaydigan omillarning yo'qligi bilan bog'lab ko'rsatilgan. Bundan korrupsiyaga qarshi kurashda boshqa mintaqalarning dasturlarining ko'chirib olinib, tadbiq etilishi samara bermasligi, har bir mintaqada o'zining o'zigaxosliklaridan kelib chiqib o'z strategiyasini ishlab chiqish lozimligini ta'kidlanadi. Mualliflar fuqorolik jamiyat institutlarining faolligining oshishi korrupsiyaga qarshi kurashda muhim omil ekanligidan kelib chiqib O'zbekiston sharoitida fuqorolik jamiyati va davlat o'rtasidagi munosabatlarni shakllantirish bo'yicha tavsiyalarni taqdim etishadi.

Kalit so'zlar: korrupsiya, maishiy korrupsiya, tizimli yondashuv, o'z o'zi tashkil etish, ijtimoiy ong, an'analar, ijtimoiy institut, davlat, fuqorolik jamiyat.

Бердимуратова Алима,

доктор философских наук, профессор,
директор регионального
исследовательского центра «Жаслык»
e-mail: b.alima@karsu.uz

Баймурзаев Азамат,

доктор философии (PhD) по философским наукам
доцент, Каракалпакского государственного университета

e-mail: baymurzaev2020@gmail.com

Бердимуратов Науриз,

преподаватель Каракалпакского государственного университета

e-mail: nauriz.berdimuratov@gmail.com

РОЛЬ ИНСТИТУТОВ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В БОРЬБЕ С КОРРУПЦИЕЙ В ОБЩЕСТВЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются особенности коррупции как социального явления, факторы возникновения бытовой коррупции. Особое внимание уделяется системному характеру коррупции. Хотя бытовая коррупция кажется менее опасной в жизни общества, указывается, что она опасна тем, что вызывает склонность к коррупции в общественном сознании. Обосновано, что принятие коррупции, сформировавшейся в общественном сознании, как обычного явления служит механизмом, обеспечивающим стабильность системы коррупции, сформировавшейся в обществе на протяжении многих лет. Наличие системного характера коррупции связано с отсутствием факторов, являющихся альтернативой государству как социальному институту и обеспечивающих, чтобы государство не превышало свои основные функции. Отмечается, что копирование и внедрение программ других регионов в борьбе с коррупцией неэффективно, каждый регион должен разработать свою стратегию исходя из своих особенностей. Исходя из того, что повышение активности институтов гражданского общества является важным фактором в борьбе с коррупцией, авторы представляют рекомендации по формированию отношений между гражданским обществом и государством в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: коррупция, бытовая коррупция, системный подход, самоорганизация, общественное сознание, традиции, социальный институт, государство, гражданское общество.

Berdimuratova Alima,

Doctor of Philosophy, Professor,

Director of the Regional Research Center «Zhaslyk»

e-mail: b.alima@karsu.uz

Baymurzaev Azamat,

Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy,

Associate Professor, Karakalpak State University

e-mail: baymurzaev2020@gmail.com

Berdimuratov Nauriz,

Lecturer at Karakalpak State University

e-mail: nauriz.berdimuratov@gmail.com

THE ROLE OF CIVIL SOCIETY INSTITUTIONS IN THE FIGHT AGAINST CORRUPTION IN SOCIETY

ABSTRACT

This article analyzes the characteristics of corruption as a social phenomenon and the factors behind domestic corruption. Attention is drawn to the systemic nature of corruption. Although domestic corruption appears to be less dangerous in the life of society, it is shown that it is dangerous due to its property of causing a tendency toward corruption in the public consciousness. It is substantiated that the perception of corruption as a normal phenomenon formed in the public consciousness serves as a mechanism ensuring the stability of the system formed over the years. The systemic nature of corruption is linked to the absence of factors that serve as an alternative to the state as a social institution and ensure that the state does not exceed its core functions. It is emphasized that copying and implementing programs from other regions in the fight against corruption will not

be effective, and each region should develop its own strategy based on its own characteristics. Based on the fact that increasing the activity of civil society institutions is an important factor in the fight against corruption, the authors provide recommendations for the formation of relations between civil society and the state in the context of Uzbekistan.

Keywords: corruption, domestic corruption, systemic approach, self-organization, social consciousness, traditions, social institution, state, civil society.

KIRISH

Mamlakatimizda jamiyatni demokratlashtirish, bozor iqtisodiyotini rivojlantirish va huquqiy davlatni shakllantirish bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Korrupsiya illatining saqlab turilishi ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirishda to'siq bo'luvchi omillardan biri hisoblanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan korrupsiyaga qarshi kurash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Shu maqsadda yangidan O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi, korrupsiya bilan bog'liq bo'lgan huquqbuzarliklarning oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan bir qancha me'yoriy hujjatlar, jumladan O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi.

Aytib o'tish kerak korrupsiya tizimli hodisa. Lekin, tizimli ekanligini bilishning o'zi yetarli emas. Shuning uchun, uning tizimli ekanligining sababini bilish kerak. Bu faqat akademik ahamiyatga ega bo'lgan masala bo'lib qolmay, u konkret amaliy ahamiyatga ham egadir. Korrupsiyaning tizimli xarakteri uning ijtimoiy hodisa ekanligi bilan bog'liq. Jamiyatning bir elementi sifatida jamiyatning to'rt sohasi: moddiy ishlab chiqarish, boshqaruv, ijtimoiy va ma'naviy faoliyat sohalari bilan bog'liq. Shuning uchun faqat davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish orqali korrupsiyaga yechim topishga urinish noto'g'ri.

Davlat boshqaruvini isloh qilish jamiyatda shakllangan, umumijtimoiy miqyosda samarasiz bo'lsa-da, shaxsiy turmush miqyosida shakllangan va ma'lum darajada odamlar turmush sharoitining ajralmas qismi bo'lib qolgan munosabatlarga qarshi qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun mamlakat islohotlariga aholi faol bo'lmasa-da, passiv tarzda qarshilik ko'rsatishi mumkin. Bu passiv yangilanishlarning formal tarzda bajarilishi, faollikning sustligida ko'rinadi.

Ayrim hollarda korrupsiyaga qarshi kurash jamiyatda beqarorlikni keltirib chiqarishga xizmat qiladigan omilga aylanib qolish xavfi ham mavjud [3]. Shu bois korrupsiyaga qarshi kurash kompleks holda, puxta o'ylangan reja asosida amalga oshirilib borilishi lozim. Shu o'rinda alohida ta'kidlash lozim bo'lgan masala sifatida jamiyatning ochiq, o'zini o'zi tashkil etuvchi va rivojlanuvchi tizim ekanini unutmaslik lozim. Bu xususiyat korrupsiyaga qarshi kurash bo'ladimi yoki jamiyatda yangilanish amalga oshirishni maqsad qilib qo'ygan har qanday reja qat'iy bo'lmasligi, unga doimo o'zgartirish va qo'shimchalar kiritib borish, o'zgartirish imkoniyati bo'lishi kerak. Demak, uzoq muddatga mo'ljallangan dasturlar o'rniga kichik loyihalar ko'rinishida tadbirlarni tashkil etish samaraliroq hisoblanadi.

METODOLOGIYA

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati institutlarining rolini o'rganishda zamonaviy sotsiologik tadqiqot metodlari, statistik tahlil usullari hamda tizimli yondashuv asos qilib olindi. Ushbu bo'limda tadqiqotning metodologik asosi, tadqiqot obyekti va predmeti, asosiy gipotezalar, ma'lumotlar manbai va ishlatilgan metodlar tizimli ravishda yoritiladi.

Tadqiqot sotsiologik nazariyalar, xususan, Rose-Ackerman S [1], Putnam R. [2], Rose-Ackerman S. [3], kabi olimlarning fuqorolik jamiyat, demokratiya va korrupsiyaning vujudga kelishi haqidagi nazariyalariga tayanadi. Ayniqsa, R.Putnamning "fuqorolik jamiyat", "fuqorolik madaniyati" tushunchalari korrupsiyaga qarshi kurashda fuqorolik jamiyati institutlarining imkoniyatlarini taxlil qilishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, tizimli yondashuv – ya'ni korrupsiyani murakkab, o'z o'zini tashkil etuvchi ochiq tizim sifatida talqin qilinishi – asosiy nazariy paradigma sifatida tanlandi.

ASOSIY QISM

Jamiyatning tizimli xarakteri korrupsiyaga qarshi kurashning har bir mamlakat va mintaqa xususiyatini hisobga olishni taqozo etadi. Tarixdan ko‘chirilgan modellar mamlakatlar uchun, undagi insonlar hayoti uchun salbiy oqibatlariga olib kelganiga misollar ko‘p. Shu bois korrupsiyaga qarshi kurashning Daniya, Finlyandiya yoki Singapur modellari faqat o‘z hududlarida samarali. Ularni ko‘r-ko‘rona O‘zbekistonga ko‘chirish samarasiz, hatto xavfli ham bo‘lishi mumkin. O‘zbekiston asrlar davomida markazlashgan boshqaruv tizimida yashab kelgan. Bu undagi davlat boshqaruvi organlarining o‘ziga xosligi, ijtimoiy ong tuzilishiga ham o‘z ta‘sirini saqlab qolgan. Osiyo mamlakatlari ijtimoiy tuzilmasidagi o‘ziga xoslik masalasi “Osiyochoa ishlab chiqarish uslubi” masalasi sifatida hozirgi kunga qadar ko‘plab bahs-munozaralarga sabab bo‘lib kelmoqda [11], biz bunda O‘zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurashishning o‘z strategiyasi bo‘lishi, bu strategiya o‘zida jahon tajribasini mujassam etishi, jamiyatimizning o‘ziga xosligi, bugungi kunda yurtimizda ro‘y berayotgan tendensiyalarni hisobga olishi, yangilanishlarga qodir bo‘lishi kerak.

Jamiyatdagi korrupsiya hodisasining ajralmas qismi maishiy korrupsiyadir. Maishiy korrupsiya makkor tabiatga ega. Chunki u o‘zining ko‘lami bilan e‘tiborsiz ko‘ringani bilan umumiy miqyosda katta oqibatlarni keltirib chiqaradi. Yana bir xavfli tomoni u kundalik xarakteri uning to‘g‘ri ekanligi haqida qarashni keltirib chiqaradi. Bu bizning fikrimizcha kundalik turmushdagi korrupsiyaning eng xavfli tomoni. Ijtimoiy ongda, uning vorisiyligini ta‘minlaydigan madaniyat mexanizmlarida korrupsiyaga moyillik, stereotiplarni, an‘ana va ko‘nikmalarning shakllanishini keltirib chiqaradi.


Maishiy korrupsiyani korrupsiyaning jamiyatda ildiz otish darajasini ko‘rsatuvchi indikator sifatida qarash mumkin. Shu bois maishiy korrupsiyaning tabiatini o‘rganish umuman korrupsiya illatini yo‘q qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni aniqlash imkonini beradi. Shu maqsadda “Yoshlik” hududiy tadqiqot markazi tomonidan 2026-yil 2-martdan 19-mart oralig‘ida Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida sotsiologik tadqiqot ishi olib borildi.

Ushbu tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi “Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi” buyurtmasi bo‘yicha “Maishiy korrupsiya holatlarini keltirib chiqaruvchi omillar va unga jamoatchilikning munosabatini o‘rganish” nomli loyiha asosida amalga oshirildi. Sotsiologik tadqiqotning maqsadi qilib, maishiy korrupsiyaning ijtimoiy ongga singish darajasini aniqlash, hozirgi kunda korrupsiyani bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarga aholining munosabatini aniqlash bo‘ldi.

Umumiy tanlov guruhi sifatida 1000 nafar respondent olinib, shundan 500 nafari oflayn shaklda, 500 nafari esa onlayn shaklda ishtirok etdi. Aytib o‘tish kerakki, oflayn shaklda so‘rovnomada qiyinchiliklar yuzaga keldi, chunki korrupsiya masalasi bo‘yicha yozma so‘rovnomani to‘ldirishda respondentlar oldida xavotirlik bo‘ldi.

So‘rovnoma uchta bo‘limdan iborat bo‘lib, birinchi bo‘limda savolnomaning pasporti, yag‘ni respondentlar haqida ma‘lumotlar bo‘lsa, ikkinchi bo‘limda respondentlarning maishiy korrupsiya haqida fikrlari.

“Sizning fikringizcha, maishiy korrupsiyaga quyidagilardan qaysilarini kiritish mumkin?” degan savolga javoblar taqsimoti quyidagicha bo‘ldi (bunda respondentlarga bir nechta javoblarni tanlash imkoniyati berildi) (1-rasm).




1-rasm. Sizning fikringizcha, maishiy korrupsiyaga quyidagilardan qaysilarini kiritish mumkin?

Bu ijtimoiy ongda hayotiy korrupsiya haqida ko‘z-qoralarning borligi bilan xalqning bu jag‘dayg‘a puhoralarning faol ravishda qarshiligini yo‘qligidan dalolat beradi. Bu xavfli hodisa.

Respondentlarning maishiy korrupsiya holatlariga duch kelgan yoki kelmaganligini aniqlash bilan bog‘liq so‘rovimizga respondentlarning 44 foizi “ha duch kelganman” 21 foizi esa “yo‘q duch kelmaganman” deb javob bergan bo‘lsa, qolgan 35 foizi “aytolmayman” degan javob qaytardi. Bu berilgan savolga berilgan javoblar xavotirni yanada kuchaytiradi.


“Sizningcha qaysi sohalarda maishiy korrupsiya holatlari uchraydi?” degan savolga berilgan javoblar taqsimoti quyidagicha bo‘ldi (2-rasm).



2-rasm. Sizningcha qaysi sohalarda maishiy korrupsiya holatlari uchraydi?

Bu ko‘rsatkichlar umumiy ko‘rsatkichlar bilan ijtimoiy ongni baholash deyarli to‘g‘ri keladi. Biz javoblar ichiga qurilish sohasi degan javobni kiritmaganligimiz sababi, qurilish sohasidagi korrupsiya holatlari turmush darajasida emasligida bo‘ldi.


“Agar maishiy korrupsiya holatlariga tushgan bo‘lsangiz pul yoki sovg‘a berishdan maqsad nima edi?” degan savolga respondentlar javoblari quyidagilarni ko‘rsatdi (3-rasm).



3-rasm. Agar maishiy korrupsiya holatlariga tushgan bo‘lsangiz pul yoki sovg‘a berishdan maqsad nima edi?


Bu ko‘rsatkichlar maishiy korrupsiyaning aholi nazarida “odatiy hol” sifatida baholanishidan dalolat beradi.

“Sizning fikringizcha, doktorga eylanib ketgandan keyin, unga rahmat aytib kichkina bir “sovg‘a” berib ketgan to‘g‘rimi?” degan savolga respondentlar javoblarining taqsimoti quyidagicha bo‘ldi (4-rasm).



4-rasm. Sizning fikringizcha, doktorga eylanib ketgandan keyin, unga rahmat aytib kichkina bir “sovg‘a” berib ketgan to‘g‘rimi?

“Sizning fikringizcha maktabda sizning farzandingizni o‘qitadigan o‘qituvchilar yoki tarbiyachilariga bayramlarda sovg‘a berish korrupsiya hisoblanadimi? (bir nechta javobni tanlasangiz bo‘ladi)” savoli ko‘rsatkichlari quyidagicha bo‘ldi (5-rasm).



5-rasm. Sizning fikringizcha maktabda sizning farzandingizni o‘qitadigan o‘qituvchilar yoki tarbiyachilariga bayramlarda sovg‘a berish korrupsiya hisoblanadimi?

Bu ko'rsatkichlar yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek korrupsiya yog'daylarg'a aktiv qarshi ko'z-qaras qaliplesib qo'ymasdan, hatte uni maqullaw kayfiyatlari ham biroz yo'qqori ekanligini k Ushbu savolwlarining tahlili bizning fikrimizcha ning korrupsiyaning bizningning jamiyatimizda chuqurning ildiz tortqanglag'dan darak beradi. Bu holat g'bo'ladining sababi haqqda fikr yuritganimizda, bunday salbiy holat g'faqat subyektiv omillar yoki hozirgi davrdagi huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hodisalar bilan emas, balki uzoq davom etgan obyektiv jarayonlarning natijasi deb xulosa chiqarish mumkin. Bu jarayon bir necha yil yoki bir necha o'n yillar emas, balki asrni o'z ichiga olishi mumkin. Eski sovet tuzumi markazlashgan boshqaruvni kuchaytirishi bilan jamiyatning barcha sohalarini nazorat qiluvchi tizimni joriy etdi. Bu byurokratik apparatga katta imkoniyat va mas'uliyat yuklardi.

Lekin, bu tizimning faoliyati tashqaridan emas edi. Demokratik jamiyatlarda davlat nazorati fuqarolik jamiyati tomonidan amalga oshiriladi. Ammo Ittifoqda siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari ham butunlay davlat bilan birlashib ketgan edi.

Lekin jahon tajribasida demokratik tamoyillar, fuqarolik jamiyati institutlari ancha cheklangan mamlakatlarda ham korrupsiyaga qarshi choralar samarali ekanini ko'rsatadi. Ko'pincha bunda Singapur misoli ko'rsatiladi. Bunda tadqiqotchilar korrupsiyaga qarshi kurashda qattiqqo'llikka, ko'proq Li Kuan Yu faoliyatiga e'tibor qaratadilar [4]. Tadqiqotchilar Singapur iqtisodiyotining o'ziga xosligiga e'tibor qaratishmaydi. Aslida bu kichik mamlakat g'arb korporatsiyalarining katta bozor bo'lgan Uzoq Sharqqa, asosan Xitoyga yo'l ochishga ishonchli xab vazifasini bajarishi kerak edi. Bu vazifani bajarish uchun Singapur investitsiyalar kiritish imkonini beradigan ishonchli joy bo'lishi kerak edi, korrupsiya esa barqarorlikka xalaqit berishi mumkin edi.

G'arb qattiq qo'l bo'ldi, demokratik tamoyillarga zid bo'lgan choralar bo'lsa ham ishonchli menejerni qo'llab-quvvatladi. Demak davlatdan tashqarida uni nazorat qilib turgan omil bor. Biz korrupsiyaga qarshi kurashda Singapur namunasini ortiqcha ko'tarishga qarshimiz. Har bir mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurash o'zining hududiy, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga ega ekanligini hisobga olish zarur, deb hisoblaymiz.

Bizning mamlakatimizdagi sharoitga qaytadigan bo'lsak mamlakatdan tashqarida ham Sovet mamlakatining ichida vaziyatning yaxshilanishidan manfaatdor yirik kuchlar yo'q edi. Bu korrupsiyaning davlat tuzilmalari ichiga kirib, uning ajralmas qismiga aylanishiga sabab bo'ldi. Buni biz "paxta ishi" deb atalgan jarayon misolida ko'rishimiz mumkin. Har qanday rivojlangan, murakkab, o'zini o'zi tashkil etuvchi tizim kabi davlat tuzilmasi bilan uyg'unlashib ketgan korrupsiya tashqi ta'sirlardan himoyalaniş mexanizmlarini ishlab chiqadi. Bunday mexanizm sifatida, bizning fikrimizcha, ijtimoiy hayotda korrupsiyaga moyillik kayfiyati, ushbu tizimga kirib kelish ko'nikmalaridan iborat urf-odatlarini ko'rsatib o'tish mumkin. Jamiyatning yangi a'zosi ijtimoiylashuv jarayonida korrupsiyaning tabiiy holat ekanligi, olish-berish ko'nikmalarini o'ziga singdirib boradi. O'tkazilgan tadqiqotimizda mahalla fuqarolar yig'inlaridagi suhbatlarda oddiy turganlar (ularning ko'pchiligi ijtimoiy muhtoj qatlam vakillari) "korrupsiya yo'q bo'lmaydigan bo'lsa kerak", "baribir "rahmat" aytib ketish kerak", degan fikrlarni ta'kidladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, agar korrupsiyani tizimli hodisa sifatida qaraydigan bo'lsak, uning bartaraf etilishi unga davlatdan tashqarida ta'sir etuvchi omil bo'lishi kerak degan xulosaga kelish mumkin. Bu omil sifatida fuqarolik jamiyati institutlari xizmat qiladi. Jamiyat institutlaridan bo'lgan davlat va fuqarolik jamiyatining korrupsiyani bartaraf etishga qaratilgan faoliyatidagi o'zaro munosabatini quyidagi ikki ssenariyda ko'rsatish mumkin:

Birinchi senariy, keskin ziddiyat ssenariysi, bunda davlat fuqarolik jamiyati ta'sirida korrupsiyaga qarshi keskin tub choralar ko'radi. Bu ssenariy tez orada o'z samarasini beradi, lekin u o'zi bilan birga bir necha o'n yilliklar davomida shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimiga ham ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Siyosiy va iqtisodiy keskinliklarni keltirib chiqaradi. Murakkab geosiyosiy vaziyatda bu ssenariy xatarli hisoblanadi.

Ikkinchi senariy, fuqarolik jamiyati institutlarining korrupsiyaga qarshi kurashda davlat bilan birgalikda davomli strategik reja asosida ish olib borishi. Bu senariyning qiyinchilik tomoni, bu faoliyatning natijalari tez ko'rinmaydi, shuning bilan birga puxta o'ylangan, jamiyatdagi entropiya

va bifurkatsiya holatlarini hisobga oladigan dasturning ishlab chiqilishi, shuning bilan birga bu dasturning takomillashtirib borilishini talab etadi. Lekin natija uzoq cho‘zilgani bilan ishonchli bo‘ladi. Bizning fikrimizcha, O‘zbekiston uchun ikkinchi ssenariy ma‘qul keladi. Bunda davlatning jamiyatning barcha sohalarida amalga oshirayotgan chora-tadbirlari fuqarolik jamiyati institutlarining faolligi bilan birgalikda amalga oshirib borilishi lozim.

Korrupsiya ijtimoiy hodisa bo‘lganligi uchun u tizimli xarakterga ega bo‘ladi. Shuning uchun uni bartaraf etish choralari ham kompleks xarakterga ega bo‘lishi kerak. Aks holda bu choralalar samaradorligi pasayishi va hatto salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shu bois mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi olib borilayotgan chora-tadbirlarning asosiy yo‘nalishlari bo‘lgan iqtisodiyotni liberallashtirish, boshqaruv sohasini demokratlashtirish va raqamlashtirishni rivojlantirish ishlari ma‘naviy madaniyatni shakllantirish ishlari bilan mustahkamlanishi lozim. Fuqarolik madaniyati aholining keng qatlamlarining reflormalarni amalga oshirishda faolligini ta‘minlaydigan muhim omil hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, bu borada yurtimizda bir qancha kamchiliklar uchraydi.

Fuqarolik madaniyati mamlakat fuqarolarining o‘z mamlakatida yuz berayotgan siyosiy jarayonlarga oid bilim va ko‘nikmalari majmuini anglatadi. Fuqarolik madaniyatining kognitiv jihati mamlakatda yuz berayotgan o‘zgarishlar haqidagi xabardorlik darajasini anglatadi, ko‘nikmalar ushbu jarayonlarda ishtirok etish bilan bog‘liq usullarni o‘z ichiga oladi. Bu ikki tomon o‘zaro bog‘liq bo‘lib, faqat birgalikda samarali xarakterga ega bo‘ladi.

Fuqarolik madaniyatining bilish jihati mamlakatimizda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni to‘g‘ri targ‘ib qilish bilan bog‘liq [1]. Bunda targ‘ibot umumiy fikrlardan konkret misollar ko‘rinishida berilishi lozim. Bunda yig‘ilishlar yoki televideniyaedagi ko‘rinishlar bilan cheklanish noto‘g‘ri. Chunki asosiy auditoriyaning qayerda ekanligi tushunilishi kerak. Hozirgi kunda asosiy auditoriya ijtimoiy tarmoq va messenjerlar hisoblanadi. Shu bois korrupsiyaga qarshi targ‘ibot ijtimoiy tarmoqlarga o‘tkazilishi kerak. Birinchidan, davlat organlari, ayniqsa, huquqbuzarlikka qarshi kurashish bilan bog‘liq xizmatlarning “ommaviy axborot vositalari bilan ishlash” bo‘g‘inlari faoliyati qayta ko‘rib chiqilishi lozim. Ikkinchidan, korrupsiyaga qarshi targ‘ibot davlat organining faoliyati sifatida emas, balki mustaqil blogerlar tomonidan amalga oshirilishi kerak.

Shuning uchun, korrupsiyaga qarshi kurashni targ‘ib qiluvchi bolgarlar uchun mini loyihalar moliyalashtirilishi kerak. Siyosiy va iqtisodiy ziddiyatlarda blogerning, ijtimoiy tarmoqlarning imkoniyatlaridan foydalaniladi va u o‘z samarasini berib kelmoqda. Endi davlat ham o‘z faoliyatini ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ib qilib borishi kerak. Ammo, ommaviy axborot vositalari deganda davlat faqat gazeta, radio va televideniyaeni tushunib kelmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda davlat ustunlik qila olmaydi, davlat bu ommaviy axborot vositasida nodavlat tashkilotlar bilan teng raqobatga kirishi kerak. Davlat bu raqobatdan cho‘chimasligi kerak. Aksincha ularni o‘rganib, ularning usullarini o‘rganib borishi kerak.

XULOSA

Fuqarolik madaniyatining tarkibiga bilim bilan birga ikkinchi qismi ko‘nikmalar ham kiradi. Ko‘nikmalarning shakllanishi odamlarning kutilayotgan natijaga bog‘liq faoliyatda ishtirok etishi asosida shakllanadi. Faqat pand-nasihatlarga salbiy munosabatni keltirib chiqaradi. Bu korrupsiyaga qarshi faoliyatda ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi, odamlarda “bu men bilan bog‘liq emas”, “bu narsa faqat aytilaveradi”, “bu soxta” degan qarash shakllanishi xavfi bor.

Fuqarolik ko‘nikmalarining shakllanishi insonning davlat ahamiyatiga molik faoliyatda ishtirok etishi bilan bog‘liq. Korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash fuqarolik madaniyatini shakllantirishning muhim shartlaridan biridir. Davlat ahamiyatiga molik tadbirlarda fuqarolarning ishtirokini ta‘minlash davlat bilan o‘zining birligi hissini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu faoliyatda davlat organlari faoliyati yetarli samara bermayapti. Chunki tobora davlat organlarining jamoat ishlaridagi roli kamayib bormoqda. Bu qonuniy hodisa. Lekin davlat organlaridan keng jamoatchilikni qamrab olish talabini qo‘yish maqsadga muvofiq emas. Birinchidan, hokimiyatlar, vazirliklarning huquqlari tobora kamayib bormoqda, oldingi davrlardagi kabi majburlash usullari ishlamaydi. Shuning uchun ommaviy tadbirlarda faqat davlat

ishlarida ishlovchilar, davlat o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan yoshlar ishtirok etadi. Biroq nodavlat sektorning kengayib borishi bu qamrovni cheklab boradi;

Ikkinchidan, davlat organlari buyruq sifatida majburlash usullaridan foydalanadi. Chunki byurokratik tizim bu hodisani keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun turli yo'llar bilan qamrov ta'minlangani bilan undagi ishtirokchilarning ishtiroki passiv bo'ladi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda davlat ahamiyatiga molik tadbirlarda fuqarolarning ishtirokini ta'minlash uchun huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda faol ishtirok etgan shaxslarni rag'batlantirishni kuchaytirish tavsiya etiladi. Bu aloqalarning faolligini ta'minlab, asta-sekin ijtimoiy ongga ijobiy hodisa sifatida kirib borishini ta'minlaydi.

Shuni aytib o'tish kerakki, fuqarolik madaniyati nafaqat huquq sohasiga daxldor, u siyosiy sohaga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Shu sababli maishiy korrupsiyaga oid choralarning samaradorligi fuqarolarning siyosiy masalalar bo'yicha ham faolligiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu faollikka davlat boshqaruvining tez javob qaytara olish imkoniyati mavjudligi ham bu choralarni amalga oshirishni e'tiborga olish lozim.

Adabiyotlar/ Literatura/ References:

1. Almond G., Verba S. *The Civic Culture: Political Attitudes and Democracy in Five Nations*. Princeton University Press, 1963.
2. Putnam R. *Making Democracy Work: Civic Traditions in Modern Italy*. Princeton University Press, 1993.
3. Rose-Ackerman S. *Corruption and Government: Causes, Consequences, and Reform*. Cambridge University Press, 1999.
4. Jon S.T. Quah. *Singapore's Success in Combating Corruption: Lessons for Policy Makers // Asian Education and Development Studies*. 2017.
5. Urinboyev R., Svensson M. *Living Law, Legal Pluralism, and Corruption in Post-Soviet Uzbekistan*. DOI: 10.1080/07329113.2014.867752.
6. Sankova A.A., Kudryashov K.V. «Korrupsiya» i «bytovaya korrupsiya»: sootnoshenie ponyatiy, aktualnye problemy protivodeystviya // *Nauchno-metodicheskiy elektronnyy jurnal «Koncept»*. – 2016. – T. 17. – S. 664-668.
7. Latipov S. *Metodologicheskie i teoreticheskie osnovy pravovogo analiza korrupcionnykh prestupleniy*. – Jurnal pravovyx issledovaniy, 2025.
8. Egoryshev S.V., Egorysheva E.A. *Korrupsiya: institucionalnye priznaki, sotsialnye determinanty i posledstviya // Vestnik RUDN. Seriya: Sotsiologiya*. – 2021. – T. 21. – №2. – S. 253–264. DOI: 10.22363/2313-2272-2021-21-2-253-264.
9. Seligman A. B. *The Idea of Civil Society*. – Princeton University Press, 1992.
10. Yurgen Habermas *Strukturnye izmeneniya publichnoy sfery*. – M.: Ves Mir, 2016.
11. Berdimuratova A., Baymurzayev A. *Sivilizatsion yondashuv "Osiyocha ishlab chiqarish usuli" muammosini tadqiq etishning metodologik asosi sifatida. Hozirgi zamon falsafasi: holati va rivojlanish istiqbollari (Akademik Jondor Tulenov tavalludining 95 yilligiga bag'ishlangan respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari (2023-yil 13-may))*. – Toshkent: TDPU, 2023.- B.94-99.
12. Berdimuratov N. *The role of e-Government and AI in anti-corruption reforms of Uzbekistan: A case study. Jamiyat va innovatsiyalar – Jamiyat va innovatsiyalar - Society and innovations Special Issue - 01 (2026) / ISSN 2181-1415*.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000